

Tashniyozov Sardor Normamatovich

“Termiz” Davlat muzey-qa’riqxonasi Tarix bo’limi mudiri

QADIMGI KUSHON DAVLATI MADANIYATI VA DAVLATCHILIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milodiy I asrda Guyshuan xonodoni vakillari asos solgan Kushon podsholigi va uning madaniyati, davlatchiligi tarixi xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Markaziy Osiyo, Kushon davlati, Ko’xna Termiz, Xolchayon, Qoratepa, Parfiya, So’g’d

Xitoy manbalarida ta’kidlanganidek, yuechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar: Guyshuan (Kushon), Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi. Ularning har biri qariyb 100 yilcha alohida-alohida siyosiy kuch, hokimlik bo’lib, yagona hukmdorga bo’ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Yunon manbalarida esa bu qabilalar toxtarlar deb qayd etiladi. Milodning I asrida Kushon qabilasi jabg’usi Kujula Kadfiz barcha yuechji (toxtar) qabilalarini birlashtiradi va kushon podsholigi (Toxtariston) ga asos soladi. Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida, xitoy manbalarida ta’kidlanishicha, Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi yuechji qabilalari (aslida massagetlar) o’z qo’shnisi - xunlar tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay g’arb tomon siljiydilar. Yuechjilar Issiqko’l atrofidagi sak qabilalari bilan to’qnashib ularni janubi-g’arb tomonga suradilar. Biroq yuechjilar ushbu qabilalari zarbasiga uchrab, janubga siljib, mil. av. 130—yillarda So’g’diyona hududiga kirib keladilar. Yuechjilar, Xitoy tarixchisi Chjan Syan ta’kidlashicha, So’g’diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag’daradilar. Kujula Kadfiz qo’shni hududlarga yurish uyushtirib So’g’diyona, Marg’iyona, Hindistonning shimoli-g’arbiy qismini zabt etadi. Shu tariqa, yirik davlat - Kushonlar saltanati tashkil topadi. Kujula Kadfiz keyinchalik Qobul va Qandahor hududlarini egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoning Sho’rchi tumanida) shahri bo’lgan [1]

Xolchayon, Dalvarzin va Ayritomda olib borilgan qazish ishlari davomida kushon ustalarining yuksak mahoratidan dalolat beruvchi bronza idishlar, muhtasham shag’amsupalar, ko’zgulalar hamda zargarlik mahsulotlari topilgan. Dehqonchilik imperiya iqtisodiyotining tayanchi bo’lgan. Yer hosildorligini oshirish maqsadida turli o’g’itlardan keng foydalanilgan. Tog’ oldi hududlari va cho’llar chorvachilik maqsadlarida foydalanilgan [2]. Ta’kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o’rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma’lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma’lumotlar va ilk o’rta asrlar manbalariga asoslanadi. Avvalambor, Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so’z yuritadigan bo’lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo’lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta’kidlash lozimki, O’rta Osiyoda buddizmning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxtariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan o’ndan ziyod budda ibodatxonalari, yuzdan ortiq budda haykallari aniqlanib o’rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz Yaqinidagi Qoratepa ibodatxonalari, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvarzintepa ibodatxonalari hisoblanadi. Shimoliy Baqtriyaning o’ziga xos madaniyati me’morchilik sana’tida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), Shaharsozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o’z aksini topadi. Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Kushonlar davrida binokorlik va me’morchilik ham shaklan ham mazmunan rivoj topganligi kuzatiladi. Chunki, bu davrdagi ma’muriy, diniy, ishlab chiqarish, turar-joy, mudofaa inshootlari, Sharq me’morchiligi bilan ayrim o’xshashliklar topsada, o’ziga hos tomonlari ustunlik qiladi. Me’morchilikning o’ziga hos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa,

Qoratepa kabilardan oʻrganilgan boʻlib, ular jahon miqyosida mashhur boʻlgan obidalaridir. Kushon davlatining inqirozga uchrashi Yunon-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha oʻxshab ketadi.

Kushon davri Markaziy Osiyo xalqlarini moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar bo'lganligi bilan izohlanadi. Buyuk Kushonlar saltanatining taqdiri, ma'naviyati nuqtai nazaridan ayanchli tugadi, ya'ni o'z davrida uning tarixi va madaniyati deyarli yozilmadi. U haqda qadimgi ma'lumot juda kam, yozuv yodgorliklari ham unchalik ko'p emas. Markaziy Osiyoda mil. avv. IV-II asrlarda oraniy yozuv asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ladi. Kushon davriga kelib ular safiga yana bir yozuv Kushon (Baqtriya) yozuvi paydo bo'ladi. Dastlabki yodgorliklar Ayritoshda va Ko'xna Termizda 30-yillarda ochilib, 60- yillarda davom ettirildi. Keyinchalik ko'xna Termiz yaqinidagi Qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayztepa, Xolchoyi va Darvarzin ko'xna shaharchalar ochilib nixoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ldi. Ayritosh ko'hna shahrining topilgan o'ylarning Kesh tog'iga ishlangan tosh tasvirlar (sharshara) asrimizning 30-40 yillaridayoq ma'lum edi. Bu peshtoqlarda gullarga burkangan, musiqa asboblari chalib turgan qizlar va do'mbira chalib turgan bolalarning tasviri tushurilgan. Surxondaryo viloyatining Denov shahri paxta dalalarining birida qchonlardir yirik shahar bo'lgan Xoxchayon yodgorligining qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharlarning paydo bo'lishi mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Milloddan avvalgi 250yilda vujudga kelgan Yunon-Baqtriya podsholigiga O'rta Osiyoning katta yerlari qatori Surxon vohasi ham qaragan. Bu podsholik davrida Surxandaryoda ishtimoiy -iqtisodiy munosabatlar rivojlanib ,sinfy tabaqalanish ham kuchaydi .Shaharlar ravnaq topdi. Hunarmandchilik va tashqi savdo yuksaldi .Yunon ,Hind va Turon xalqlari madaniyati omuhtalashib, o'ziga xos yuksak madaniyat vujudga keldi. Shu davrga oid ko'hna binolarning harobalari Termiz atroflaridan ham topilgan. Milod boshlarida Surxandaryo Kushonlar davlati tarkibiga kirdi. Kushonlar dastlab Toxarlar davlati o'rnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib yashaganlar. Bulardan Guyshuan (kushon)qabilasi yabg'uziy (hukumroni) Kujula Kattis milodiy 1-asrda qolgan 4 qabilani bo'y sundirib ,o'zini hukumdor deb elon etdi .U Surxandaryodagi Dalvarzintepani poytaxt qiladi .Milod boshlarida Xutoydan Kushon podsholigi mulklari ,jumladan Dalvarzintepa ,Termiz orqali O'rta dengiz sohili mamlakatlariga dastlabki karvon yo'li -Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlaridan biri o'tgan edi. Bu yo'l tashqi savdo va mamlakatlro madaniyatning rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etdi .Kushon podsholigi markazlashgan quldorlik davlatiga aylandi. Aholi asosan budda dinining Mahayana mashabiga etiqod qilgan. Dalvarzintepadan topilgan budda haykali shundan dalolat beradi. Kushon davlatining asoschisi Kujula Kattis tezda Hindistonni bosib oldi va shimoliy Baqtryani o'ziga bo'ysundirdi. Kattis II, ayniqsa, Kanishka podsholigida Kushon davlati kengayib,o'z davrida Rim, Parfiya Xan (Xitoy) saltanatlari bilan tenglashadigan qudratli saltanatga aylandi. Hozirgi butun Hindiston ,Pokiston ,Afg'oniston ,O'rta Osiyoning janubiy yerlari unga qaragan . Kushon davlati miloddan avvalgi I-asrning 2-yarmidan milodning III-asri o'rtalarigacha hokum surdi. Surxandaryo hududida Kushon davriga oid arxiologik yodgorliklar juda ko'p va xilma hildir Axomoniylar va Yunon -Baqtriya davridan bu yerda hozircha 40 manzil shahar ma'lum bo'lgan bo'lsa, Kushon davriga oid 120 dan ortiq shahar va qishloq aniqlandi. Aholi asosan Sherobod va Surxandaryo havzasi yoqalab joylashgan edi .Aholining joylashishi, katta kichik shaharlarning vujudga kelishi sug'orish shahobchalari bilan bog'liq ,albatta. Sug'orish havzalaridagi markaz shaxarlar atrofida katta kichik shaxarchalar, qarorgohlar joylashib ,ular har jihaddan markaz shaxarga bo'y sunar edi .Markaz shaxarlar esa o'z navbatida Surxandaryodagi eng yirik shaxar - Termizga qaram edi. Shu tarzda aholi turar joylari katta shaxar (Chog'oniyon ,Termiz) o'rtacha shaxar (Dalvarzintepa,Zartepa)shaxarcha(Jondavl atepa,Talashgantepa va boshqalar) yirik va mayda qishloqlarga bo'lindi. Topigan 120 yodgorlikdan 40 tasini katta shaxarlar jumlasiga kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Oʻz gullab-yashnagan davrida Kushon davlati koʻplab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashganlar, yozuvning turli tartibidan foydalanganlar hamda turli diniy eʼtiqodlarda boʻlganlar. Moddiy madaniyat buyumlarida

ham ayrim farqlar kuzatiladi. SHunga qaramasdan Kushonlar davri madaniyatiga ko,,pgina umumiylik seziladi. Ammo, butun Kushon davlatida yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo,,lmaydi. Bu ulkan davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o,,ziga xos bo,,lgan madaniyatga ega bo,,lgan. Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko'hna tariximizda katta iz qoldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yoxud elatlar hayoti misolida yaqqol ko'rsa boiadi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xolchayon (Denov), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va bosh-qalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalari o'sgan gavjum shaharlari hisoblangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati nihoyatda taraqqiy etgan, ko'plab sug'orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo vohasida Eski Angor, Zang, So'g'ddagi Darg'om kanallari shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik, haykaltaroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'hna Tuproqqal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ayni chog'da, Kushonlar davrida moddiy va ma'naviy madaniyat yonma-yon tarzda rivojlanib borgan, deb xulosa chiqarishga to'la asoslar bor.

References:

1. Abu Rayhon Beruniy. «Tanlangan asarlar». 1-jild. T., «Fan», 1958.
2. Abu Rayhon Beruniy. «Tanlangan asarlar». 2-jild. T. «Fan», 1965.
3. Ibrohim Mo'minov. «O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar». T. «Fan», 1998.
4. R. Nosirov. «O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy tarixi bo'yicha maxsus kurs». T. 1992.
5. Omonulla Fayzullaev. «Muhammad al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi». T. «Fan», 1983.
6. R.H. Murtazoyeva, A.A.Odilov, A.A.Ermetov, K.D. Soipova. "O,,zbekiston tarixi". Toshkent-2020 "Donishmand ziyosi" nashriyoti. 128-b.
7. <http://uzbekistan-geneva.ch/tarix-181.html>
8. <https://english-life.uz/>